



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI:

### **N. SALAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### **I. ERGASHEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

### **U. MUXAMEDOV**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### **S. GULYAMOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **O. OKYULOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **M. AXMEDSHAYEVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **U. TUXTASHEVA**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

### **SH. SAYDULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **X. XAYITOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **SH. XO'JAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **D. XABIBULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **SH. ISMOILOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **G. TULAGANOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **N. RAXMONKULOVA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### **J. NEMATOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **G. UZAKOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

### **A. MUXAMEDJANOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **R. KUCHKAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

### **SH. XAYDAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **SH. ASADOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **D. XUDOYNAZAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

#### **MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**  
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining  
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**  
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov  
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati  
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**  
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan  
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga  
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**  
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni  
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida  
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**  
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav  
jamg'armasidagi qarzdor ulushini  
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**  
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat  
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**  
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**  
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI.  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.  
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**  
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**  
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

**134 ISLOMOV BUNĒD OCHILOVICH**

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключающие преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN  
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Ограничение права на молчание в уголовном судопроизводстве: опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH  
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of digital information as proof in criminal cases in Republic of Kazakhstan

**175 URALOV SARBON SARDOROVICH**

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 342.5

## TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA BELGILANGAN SUD-HUQUQ SOHASIGA OID MAQSADLARNI AMALGA OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Suvanov Sardor Baxadirovich,**  
Sirdaryo viloyat Guliston tumanlararo  
ma'muriy sudining sudyasi  
e-mail: m.guliston.t@sud.uz  
ORCID: 0000-0002-5374-9686

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni hamda mazkur Farmon bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmun-mohiyati, undagi sud-huquq sohasiga oid kelgusi maqsadlar va ularni amalga oshirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan xususiy mulk huquqining daxlsizligi, shaxs huquqlarini cheklash, mahkum va mahbuslarni qiynoqlardan himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish, sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish funksiyasining xususiy sektorga o'tkazilishi kabi masalalar soha olimlarining ilmiy qarashlarini keltirgan holda tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada ushlab turish davomida huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning oliy ta'lim olishi (masofaviy shaklda) uchun imkoniyat va sharoitlar yaratish, mahkumlarning mehnat va ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning mehnat mahsulini realizatsiya qilish maqsadida elektron savdo do'koni portalini ishlab chiqish, tergov sudyasi institutini joriy etgan holda, mol-mulkni xatlash, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish kabi protsessual harakatlarni sudning ruxsati bilan amalga oshirish tartibini joriy etish, "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursida tahsil olayotgan talabalarga advokatlik tuzilmalarida stajirovka o'tash imkoniyatini yaratish kabi masalalar yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Taraqqiyot strategiyasi, mulk daxlsizligi, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, shaxs huquqlarini cheklash, ijtimoiy huquqlar, sud nazorati.

### НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАЛИЗАЦИИ В СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ СФЕРЕ ЦЕЛЕЙ, УКАЗАННЫХ В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ

**Суванов Сардор Бахадирович,**  
судья межрайонного административного  
суда города Гулистана Сырдарьинской области

**Аннотация.** В статье рассматриваются Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года № ПФ-60 и основное содержание Стратегии развития, утвержденной этим указом. С научно-теоретической точки зрения были исследованы перспективные цели и аспекты реализации указа. В частности, такие вопросы, как неприкосновенность права частной собственности, ограничение прав личности, защита задержанных и заключенных под стражу от пыток, общественная безопасность, формирование нового имиджа правоохранительных органов,

передача в частный сектор исполнения судебных актов и актов иных органов. При этом в целях усиления правовых гарантий при заключении под стражу, создания возможностей и условий для получения осужденными высшего (заочного) образования в пенитенциарных учреждениях, обеспечения прав осужденных на труд и социальное обеспечение и реализацию продуктов своего труда разработаны предложения и рекомендации по созданию портала электронной коммерции, введению порядка санкционирования судом таких действий, как арест имущества, обыск, прослушивание переговоров, введению института следственного судьи, а также созданию для студентов бакалавриата по направлению «юриспруденция» возможности прохождения стажировки в адвокатских структурах.

**Ключевые слова:** стратегия развития, неприкосновенность собственности, права человека, верховенство закона, ограничение личных прав, социальные права, судебный контроль.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE GOALS OF THE JUDICIAL AND LEGAL SPHERE SPECIFIED IN THE DEVELOPMENT STRATEGY

**Suvanov Sardor Bakhadirovich,**

Judge of the Interdistrict Administrative  
Court of Gulistan City, Syrdarya Region

**Abstract.** This article discusses the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" No. PF-60 and the main content of the Development Strategy approved by this Decree. From a scientific and theoretical point of view, the long-term goals and aspects, such as the inviolability of the right to private property, the restriction of individual rights, the protection of detainees from torture, public security, the formation of a new image of law enforcement agencies, the transfer to the private sector of the execution of judicial acts and acts of other bodies were studied. At the same time, relevant proposals and recommendations in order to strengthen legal guarantees during detention, create opportunities and conditions for convicts to receive higher (correspondence) education in penitentiary institutions, ensure the rights of convicts to work and social security and the sale of the products of their labor, proposals and recommendations have been developed for creating electronic commerce, the introduction of a procedure for sanctioning by the court of such actions as a seizure of property, a search, wiretapping of communications, with the introduction of the institution of an investigating judge, as well as proposals and recommendations for the creation of an opportunity for undergraduate students in the direction of "jurisprudence" to undergo internships in lawyer formations have been developed in this article.

**Keywords:** development strategy, inviolability of property, human rights, rule of law, restriction of personal rights, social rights, judicial control.

### **Kirish**

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha islohotlar oliy tamoyil – "Inson qadri uchun" shiori ostida amalga oshirilmoqda. Bu – inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga oliy qadriyat sifatida har doimgidan-da ko'proq e'tibor qaratilayotganini anglatadi.

So'nggi besh yilda *Harakatlar strategiyasi* asosida mamlakatimizda kuchli demokratik

huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati qurish, bozor tamoyillari asosida xususiy mulk daxlsizligiga asoslangan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining erkin, osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda xalqaro maydonlarda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Xalq davlat idoralari emas, balki davlat

idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” [1, 19-b.], degan g’oya amalda ham o’z ifodasini topib bormoqda. Bunda xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo’yicha salmoqli ishlar qilindi.

Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish va huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida *300 ga yaqin* qonun, *4 mingdan ortiq* Prezident qarorlari qabul qilindi.

So’nggi besh yil davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O’zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining *“2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”*gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon asosida keyingi besh yilga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi respublikamizda keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarib beradi.

### **Material va metodlar**

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan ma’lum bir ustuvor yo’nalishlar, aniq maqsadlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 ta ustuvor yo’nalish bo’yicha 100 ta maqsaddan iborat bo’lib, ushbu maqsadlarga erishish uchun mazkur yilda amalga oshirilishi lozim bo’lgan 398 ta chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ikkinchi yo’nalishi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish masalalariga bag’ishlangan bo’lib, unda quyidagi maqsadlar belgilangan:

– mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash;

– qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash;

– davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o’rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo’ladigan shart-sharoitlarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo’naltirish;

– sud va boshqa organlar hujjatlarining o’z vaqtida va to’liq ijrosini ta’minlash;

– advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo’lgan talabini to’liq qondirish;

– faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o’rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

Fikrimizcha, Taraqqiyot strategiyasining yuqorida keltirib o’tilgan maqsadlari bugungi kunda mamlakatimiz sud-huquq sohasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan eng muhim vazifalarni qamrab olgan bo’lib, quyida ularning har biriga alohida to’xtalib o’tamiz.

Birinchiidan, mulk daxlsizligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirish hamda tashqi investitsiyalarni jalb etishda asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi.

Huquqshunos olim Adolf Berli hamda iqtisodchi olim Gardiner Minzlarning fikricha, xususiy mulk huquqining daxlsizligi har qanday davlatda iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir [2].

Ayrim olimlar tomonidan tadbirkorlik subyektlarining o'z mulkidan erkin foydalanishlari bilan bog'liq huquqlariga daxl qiluvchi ayrim jinoyatlar uchun rag'batlantiruvchi normalarni bekor qilish va ularni qo'llamaslik orqali tadbirkorlik faoliyatining kafolatlarini yanada mustahkamlash taklif etilgan [3, 19-b.].

Mazkur fikrga qo'shilgan holda, mulk daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlashga oid islohotlar faqatgina jinoiy javobgarlikni kuchaytirish yo'li bilan emas, balki ushbu jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish va uning natijalariga ko'ra ma'muriy islohotlarning kelgusi yo'nalishlarini belgilash orqali amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Ikkinchiidan, qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash ham Taraqqiyot strategiyasida belgilangan muhim maqsadlardan biridir.

Ushbu yo'nalishda belgilangan maqsad O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi", degan qoidani amalda ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunda asosiy e'tibor shaxslarning harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog'liq choralarni qo'llashda qonuniylikka rioya

etish, mahkumlar hamda jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish orqali ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni ta-komillashtirishga qaratilgan.

Bugungi kunda amaldagi qonunchilik bo'yicha shaxsni ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llashda ushlab turish muddatini hisoblash (ushlab turish muddati 48 soatni tashkil etadi), shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda (himoyachi bilan ta'minlab berish, yaqin qarindoshlariga xabar berish va boshqalar) ayrim muammolar mavjud. Chunki ushlab turish muddatini hisoblashda ushbu muddatning qaysi vaqtdan boshlanishi bo'yicha noaniqliklar mavjud.

Ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, ushlab turish shaxsning huquqlari unga tushuntirilmasdan amalga oshirilgan bo'lsa, bu shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari buzilishi hamda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanmaslik va ularni nomaqbul dalil deb topishga olib keladi [4, 67-68-b.; 5, 14-b.].

Boshqa bir mualliflar tomonidan esa ushlab turilgan shaxsning huquqlarini ishonchli ta'minlash maqsadida ushlab turilgan shaxs va uning himoyachisiga (agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa) ushlab turish jarayoni va uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqini berish ilgari suriladi [6, 79-b.].

Tomonlarning ish materiallaridan protsessning erta bosqichlarida xabardor bo'lishi himoyaning samarali tashkil etilishiga ta'sir etadi. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga ularning himoyasini tashkil etishi uchun yetarli vaqt va shart-sharoit ta'minlab berilishi kerak [7].

Shuningdek, bugungi kunda ushlab turilgan shaxslar yagona ro'yxatining mavjud emasligi ularning bazasini shakllantirishga ham to'siq bo'lmoqda. Shunga ko'ra, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish

bo'yicha yagona elektron reestrni yuritishning elektron tizimini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, avvalo, jazoni ijro etish muassasalaridagi sharoitlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish belgilanmoqda.

Oldingi davrda mahkum va mahbuslarga bo'lgan munosabat juda og'ir tartibda olib borilib, ommaviy qiynoqlarga solish, qamoqxonalarda mahbus va mahkumlarning ko'p sonli o'limi 2004–2007-yildagi "Human Rights Watch" kabi xalqaro inson huquqlari tashkilotlarining monitoring xulosalarida kuzatilgan edi [8].

Barcha mahbuslarga insoniy fazilatlar va ularning qadr-qimmatiga qarab, hurmat bilan muomalada bo'lish zarur. Biron-bir mahbus qiynoqqa solinishi va g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini yerga uradigan muomala yoki jazo turlariga duchor qilinmasligi lozim. Barcha mahbuslar ana shu tarzda nohaq muomaladan himoyalangan bo'lishi kerak [9].

Yuqoridagilarga ko'ra, harakatlanishni cheklash bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirish, jazoni ijro etish muassasalarida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish ushbu yo'nalishda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Taraqqiyot strategiyasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadi belgilangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqilmoqda. Fikrimizcha, mazkur maqsadga erishish uchun jinoyat-protsessual qonunchiligiga tergov sudyasi institutini joriy etish o'rinni bo'ladi.

Shuningdek, Habeas corpus institutini yanada kengaytirish hamda tergov ustidan sud nazoratini o'rnatish maqsadida ayrim

protsessual harakatlarni (mol-mulkni xatlash, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish) sudning ruxsati bilan amalga oshirish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son Farmonida ham fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari himoyasini kuchaytirish maqsadida tintuv va telefon so'zlashuvlarini eshitishga sanksiya (ruxsat) berish vakolatini prokurordan sudga o'tkazish nazarda tutilgan.

Zero, ushbu mexanizm orqali prokurorning nazorat bilan bog'liq ayrim vakolatlarini sudga o'tkazish, sud organlarining mustaqilligi va obro'sini yanada kuchaytirish hamda shu orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Taraqqiyot strategiyasida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish maqsadi ham belgilangan.

S.I. Girkoning fikricha, jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligi juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligi, uni hal qilish boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog'liq [10, 8-b.].

Beshinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish maqsadi belgilangan.

Ayrim olimlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligi jarayonida muloqot madaniyati asoslarini egallash, nutqning psixolingvistik tomonlaridan xabardor bo'lish juda muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etishgan [11].

Fikrimizcha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijobiy imijini yaratish uchun, eng

avvalo, ularning funksiyalarini qayta ko'rib chiqish, xususan, jazolovchi va rag'batlantiruvchi funksiyalar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash choralarini ko'rish lozim.

Oltinchidan, sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash maqsadi belgilangan bo'lib, mazkur maqsadga erishish nafaqat ijro organlari, balki sud organlarining ham obro'si va mustaqilligini oshirishga, mulkiy huquqlarning to'la ro'yobga chiqarilishiga xizmat qiladi.

Ayrim huquqshunoslar sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish funksiyasining xususiy sektorga o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga zid ekanligini ta'kidlashgan [12].

Biroq, fikrimizcha, yuqoridagi qarash noto'g'ri bo'lib, bunda Konstitutsiyaning mazkur moddasini sharhlashda nomuvofiqlikka yo'l qo'yilgan. Zero, ushbu moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Bizningcha, "qonunlar vakolat bergan idoralar" jumlasini xususiy sektorga tegishli bo'lgan tashkilotlarni ham qamrab oladi hamda ushbu jumlaning faqatgina davlat idorasi sifatida tushunish mutlaqo asossizdir.

Yettinchidan, ushbu yo'nalishdagi yana bir maqsadlardan biri advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish hisoblanadi.

Bunda eng muhim masalalardan biri advokatura institutini to'laqonli o'zini-o'zi boshqarish tizimiga o'tkazish hisoblanadi. Bugungi kunda advokatura tashkiliy jihatdan (litsenziya olish, advokatlik tuzilmalarini tashkil etish) Adliya vazirligiga bo'ysunadi.

Xususan, advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxat-

dan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur holat, o'z navbatida, advokatura institutining mustaqilligini cheklashga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida tizimga yosh malakali kadrlarni jalb etish ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Amaldagi qonunchilikda advokat maqomini olish tartibi va shartlarining murakkab ekanligi, jumladan, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish talabi hamda majburiy stajirovkaning mavjud ekanligi aholining yuridik xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini yetarli darajada ta'minlash va yosh kadrlarni tizimga jalb etishga to'siq bo'lmoqda.

Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida advokat maqomini olishda yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lish talabini bekor qilish hamda "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursida tahsil olayotgan talabalarga advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tash imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi tartibning joriy etilishi yoshlarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga keng imkoniyatlar yaratish hamda advokat maqomini olish tartibini sodalashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aholiga malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish vazifasi belgilanmoqda.

Bugungi kunda jinoyat ishlarida shaxs to'lovga qobiliyatsizligi sababli ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to'lovdan to'liq yoki qisman ozod etishga haqlidir. Endilikda bepul huquqiy yordam ko'rsatishni

yanada kengaytirish maqsadida jinoyat ishlari bilan bir qatorda, ma'muriy va fuqarolik ishlari bo'yicha agar shaxs to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda, uni to'lovdan ozod etish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

### Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy shartiga aylantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- ushlab turilgan shaxs va uning himoyachisiga ushlab turish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlarga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan belgilangan tartibda nusxa yoki ko'chirmalar olish huquqini berish;

- amaldagi qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslarni ushlab turish tartibi va shartlarining mavjud emasligidan kelib chiqib, voyaga yetmagan shaxslarni ushlab turishning alohida tartibini belgilash;

- mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning oliy ta'lim olishi (masofaviy shaklda) uchun imkoniyat va sharoitlar yaratish;

- mahkumlarning mehnat va ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning mehnat mahsulini realizatsiya qilish hamda unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion omillarni bartaraf etish

maqsadida elektron savdo do'koni portalini ishlab chiqish. Bunda savdodan kelib tushadigan daromadlarni mahkumlarning yashash sharoitlari va jazoni ijro etish muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratish;

- Habeas corpus institutini yanada kengaytirish hamda tergov ustidan sud nazoratini o'rnatish maqsadida tergov sudyasi institutini joriy etgan holda, mol-mulkni xatlash, tintuv, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish kabi protsessual harakatlarni sudning ruxsati bilan amalga oshirish tartibini joriy etish;

- "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursida tahsil olayotgan talabalarga advokatlik tuzilmalarida stajirovka o'tash imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan sud-huquq sohasiga oid yo'nalishlar, maqsad va vazifalar "Inson qadri uchun" tamoyili asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning amaliyotga to'liq va to'g'ri tatbiq etilishi fuqarolarning huquqlarini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik subyektlari manfaatlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash va aholi vakillarining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq [Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan. Speech at the joint session of the chambers of the Oliy Majlis dedicated to the inauguration of the President of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2016, p. 19.

2. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. 2nd edn Harcourt, Brace and World, New York, 1967.

3. Kurbanov M. Criminal-legal analysis of some crimes related to obstruction of business activity in Uzbekistan. *Journal of Law Research*, 2020, vol. 5, iss. 1, p. 51.

4. Bazarova D. Theoretical and legal framework of procedural guarantees of personal rights in a criminal procedure. *Journal of Law Research*, 2021, vol. 6, iss. 9, pp. 67–68.
5. Rajabov B.A. Jinoyat proressida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash [Collection, investigation and evaluation of evidence in criminal proceedings]. Tashkent, 7th Academy of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 19.
6. Mavlanov K. Ensuring the right of the suspect to get acquainted with the case materials in the criminal process. *Journal of Law Research*, 2021, vol. 6, iss. 2, p. 79.
7. The right to a fair trial: parti – from investigation to trial. P. 248. Available at: <https://www.ohchr.org/Documents/Publications/training9chapter6en.pdf/>.
8. Human Rights Watch. Available at: <https://www.hrw.org/legacy/russian/uzbekistan.html/> (accessed 02.02.2022).
9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart Mandela qoidalari – Xalqaro qamoqxona islohoti [United Nations Minimum Standards for the Treatment of Prisoners Mandela Rules – International Prison Reform]. Penal Reform International, 2018. Available at: [https://cdn.penalreform.org/wp-content/uploads/2019/07/Nelson-Mandela-Rules\\_Uzbek-Language.pdf/](https://cdn.penalreform.org/wp-content/uploads/2019/07/Nelson-Mandela-Rules_Uzbek-Language.pdf/) (accessed 02.02.2022).
10. Gir'ko S.I. Obespechenie obshchestvennoi bezopasnosti v sisteme mer zashchity lichnosti, obshchestva i gosudarstva: sostoianie, problemy, perspektivy [Ensuring public safety in the system of measures to protect the individual, society and the state: state, problems, prospects]. *Administrativnoe pravo i protsess – Administrative law and process*, 2009, no. 5, p. 8.
11. Aripova A.X., Huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida muloqot madaniyatining o'rni [The role of communication culture in crime prevention and public safety]. *Scientific progress*, 2021, no. 6. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/u-u-buzarliklar-profilaktikasi-amda-zhamoat-havfsizligini-taminlash-so-asida-mulo-ot-madaniyati-ning-rni> (accessed 02.02.2022).
12. Burxanov A. O'zbekistonda xususiy ijrochilar institutini joriy etish chuqur tahlilni talab qiladi [The introduction of the institute of private performers in Uzbekistan requires in-depth analysis]. Available at: <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-khususij-izhrochilar-institutini-zhorij-etish-chuqur-tahlilni-talab-qiladi/> (accessed 02.02.2022).